

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'limda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rganishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetensiya bo'lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalarini kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili .....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish shartitida o'quvchi-talabalarni noxiziq fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish.....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi.....	223



UO'K: 378. 1. 14

**KREDIT- MODUL TA'LIM TIZIMI JAHON TAJRIBASI****МИРОВОЙ ОПЫТ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ****WORLD EXPERIENCE OF THE CREDIT-MODULAR SYSTEM TRAINING****Pardayeva Xurshida Olimjonovna** 

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada kredit-modul ta'lim tizimi jahon tajribasi masalalari o'rganiladi. Jahonda kechayotgan globallashtirish jarayonlaridan biri sifatida yagona Yevropa oliy ta'lim hududini yaratish maqsadida Yevropa davlatlari oliy ta'lim tizimlarining bir-biriga yaqinlashishi va uyg'unlashuvini ko'zda tutgan "Boloniya jarayoni" nini amalga oshirish mexanizmi, kredit-modul ta'lim tizimining shaxs takomiliga qaratilgani, mustaqil ishni tashkil qilish va shaxsni mustaqillikka o'rgatish ushbu ta'lim shaklining asosiy tamoyili ekanligi tahlil etiladi. Bugungi kredit-modul tizimiga o'tish sharoitida talabalar mustaqil ta'limi metodikasini shakllantirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Talabalar mustaqil ishni tashkil etish, uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish, mustaqil ishni bajarishda vizual, virtual, texnologik, informativ-raqamlashtirish, talabalarining kasbiy qiziqish va istaklarini inobatga olgan holda ilmiy-ijodiy ishlarni bajarishda mustaqil ish traektoriyalarining egiluvchanligini va variativligini ta'minlash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Maqolada horijiy oliy ta'lim muassalarida talabalarining o'z ustida mustaqil ishlashini rivojlantirish ta'lim maqsadlari va mazmunini tubdan o'zgartirish bilan bog'liq jarayonlar tahlil etilgan. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim maqsadlarini oliy ta'limni tugatgandan so'ng ham talabaning uzluksiz mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojini zaruriyat sifatida shakllantirishga yo'naltirish; talabalarda samarali ijodiy fikrlashni shakllantirish; mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini va qo'llaniladigan ma'lumotlarni har tomonlama qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish; ta'lim mazmunini mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi modeliga yo'naltirish oliy ta'limning asosiy shakli va mazmuni ekanligi o'rganilgan.

**Аннотация**

В статье рассматривается мировой опыт кредитно-модульной системы образования. В качестве одного из процессов глобализации, происходящих в мире, механизм реализации «Болонского процесса», предусматривающего сближение и гармонизацию систем высшего образования европейских стран с целью создания единого европейского пространства высшего образования, кредит- Модульная система образования анализируется, что она ориентирована на личностное совершенствование, что организация самостоятельной работы и подготовка человека к самостоятельности является основным принципом данной формы обучения. В условиях современного перехода к кредитно-модульной системе формирования методики самостоятельного обучения студентов имеет большое научное и практическое значение. Организация самостоятельной работы студентов, разработка механизма ее реализации, визуальная, виртуальная, технологическая, информационно-цифровизация в самостоятельной работе, обеспечение гибкости и вариативности траекторий самостоятельной работы при выполнении научной и творческой работы с учетом профессиональных интересов и пожеланий. студентов включено. В статье анализируются процессы, связанные с коренным изменением образовательных целей и содержания развития самостоятельной работы студентов в зарубежных вузах. Они проявляются в следующем: направление образовательных целей на формирование у студента потребности в непрерывном самостоятельном образовании как необходимости даже после получения высшего образования; формирование эффективного творческого мышления у студентов; развитие навыков логического анализа и комплексной обработки прикладной информации; Изучено, что ориентация содержания образования на модель профессиональной подготовки специалиста является основной формой и содержанием высшего образования.

**Abstract**

The article discusses the world experience of the credit-module education system. As one of the globalization processes taking place in the world, the implementation mechanism of the "Bologna Process", which envisages the convergence and harmonization of the higher education systems of European countries in order to create a single European higher education area. The credit-module education system is aimed at personal improvement, organizing independent work and personal development. It is analyzed that teaching independence is the main principle of this form of education. In today's transition to the credit-module system, the formation of the methodology of independent education of students is of great scientific and practical importance. Organizing students' independent work, developing a mechanism for its implementation, visual, virtual, technological, informative-digitization in independent work, ensuring the flexibility and variability of independent work trajectories in performing scientific and creative work taking into account the professional interests and wishes of students are among the urgent tasks. This article examines the processes related to

## PEDAGOGIKA

*the radical change of educational goals and content of developing independent work of students in foreign higher education institutions. These are manifested in the following: directing the educational goals to the formation of the student's need for continuous independent education as a necessity even after completing higher education; formation of effective creative thinking in students; development of logical analysis skills and comprehensive processing of applied data; it has been studied that the orientation of the educational content to the professional training model of the specialist is the main form and content of higher education.*

**Kalit so'zlar:** kredit-modul ta'lim, "Boloniya jarayoni", Yevropa oliy ta'lim hududi, globallashuv jarayonlari, mustaqil ish.

**Key words:** credit-module education, "Bologna process", European higher education area, globalization processes, independent work.

**Ключевые слова:** кредитно-модульное образование, «Болонский процесс», европейское пространство высшего образования, процессы глобализации, самостоятельная работа.

**KIRISH**

XX asr 90-yillaridan boshlab va XXI asrning boshlarida butun jahon ekotizimiga, iqtisodiyotiga globallashuv tushunchasi kirib keldi-ki, bu jarayon olam va odam tushunchasi bilan bog'liq barcha jabhalarni, shu jumladan ma'naviy, ma'rifiy, ta'lim, tarbiya sohalarini ham qamrab oldi. "Global iqtisodiyot", "global ta'lim makoni", "global ekologiya" kabi tushunchalar bora-bora hamma tushunadigan oddiy iboralarga aylandi, chunki globallashuv kirib bormagan sohaning o'zi qolmadi. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlariga, tabiiy-ki, tadqiqotchilar o'z munosabatlarini bildirdilar. Tadqiqotchi M.N.Gordeev "Globalizatsiya jarayonlari ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu o'zgarishlarga ta'limning ommaviy tus olishi va uning uzluksizligi, yangi sifat tarzidagi darajasini ko'rsatish mumkin. Globallashuv jarayonlaridan biri sifatida yagona Yevropa oliy ta'lim hududini yaratish maqsadida Yevropa davlatlari oliy ta'lim tizimlarining bir-biriga yaqinlashishi va uyg'unlashuvini ko'zda tutgan "Boloniya jarayoni"ni ko'rsatish mumkin", - deb ta'rif beradi. [2]

Xo'sh, "Boloniya Deklaratsiyasiga" asosan amalga oshiriladigan ta'limning kredit-modul tizimi o'zi nima? U qanday ishlaydi? Kredit-modul tizimi qanday sharoit va ehtiyojlar asosida paydo bulgan? Ushbu tizim bizga nimalarni beradi? Uning amaldagi ta'limni boshkarish tizimidan afzalliklari nima? Kredit-modul tizimida o'quv dasturlari kanday yaratiladi? Ta'limni kredit-modul tizimi asosida olib borish tizimi qanday shakllantiriladi?

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mavzuni yoritishda qiyosiy tahlil, nazariy tahlil; pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi.

"Boloniya jarayoni"ga qo'shilgan MDH davlatlarining mutaxassisleri ham kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishining ahamiyatini alohida e'tirof etdi. Tojikiston oliy ta'lim sohasiga kredit-modul tizimini joriy etish orqali talabalar mustaqil ishini tashkil etish muammolarini tadqiqotchi Z.D.Sharifova: "Ta'lim olish jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muammosi pedagogika fani va amaliyoti uchun dolzarb va ahamiyatlidir, chunki u didaktikaning masalalarini, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv jarayonining mohiyatini qamrab oladi. Keyingi yillarda milliy maktab dasturlarining takomillashtirilishi munosabati bilan (turli tipdagi maktablar va oliy o'quv yurtlari) talabalarga ta'lim berish jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muammosi ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi", - deb ta'riflaydi. [12]

Talabalar mustaqil ishini takomillashtirish davr talabi ekanligi, dolzarbligini boshqa tadqiqotchilar ham yoritishdi. [10] Biz ushbu tadqiqotimizda O'zbekiston ta'lim tizimiga yaqin bo'lgan ikkitasini keltirishni lozim topdik:

1. Zamonaviy ijtimoiy hayotning rivojlanishi, ishlab chiqarishning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ilmiy-texnik ma'lumotlarning shiddatli oqimi shu qadar keskin dinamik xususiyatga ega bo'ldi va inson tarbiyasiga shunday talablar qo'ydi, ta'limni qayta ko'rib chiqishga sezilarli darajada tezlashtirishga qaratilgan bilimlarni samarali egallash, bilish faoliyatini, mustaqillikni, dunyoqarashni shakllantirishni rivojlantirish oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

2. Milliy maktabning tafakkur, ijodkorlik, faollik va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturlar mazmuni, ta'lim-tarbiyani amalga oshirish metodikasi va yo'llari, ayniqsa, oliy o'quv yurtlari faoliyatini me'yorlashtirishga qaratilishi mustaqil shaxsning shakllanishi, talabalar mustaqil faoliyati uchun qulay sharoit yaratdi. [12]

Tadqiqotchi Musaxanova G.M. kredit-modul tizimiga “Kredit-modul tizimi, bu - ta’limni tashkil etish jarayoni bo’lib, o’qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o’lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash. Shunday ekan, kredit – modul tizimi dars mashg’ulotlarini nafaqat o’qitishni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o’qib-o’rganish, ta’lim olishga yangicha munosabatda bo’lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko’nikmalarini shakllantirishga o’rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo’naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta’minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan deb aytish mumkin”, - deya ta’rif beradi. [6]

E’tiborimizni ta’lim tizimida qo’llanilgan “kredit” tushunchasiga qaratsak. Kredit ilk bor XVIII asrning o’rtalari va XIX asrning boshlarida AQSh universitetlarida ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining ma’suliyatini oshirish maqsadida joriy etilgan bo’lib, o’quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini berish va undan kutilayotgan natijani aniqlash maqsadida tuzilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti Amerika ta’limining taniqli arbobi Charlis Uilyam Eliot “kredit soati” tushunchasini iste’molga kiritadi. Shunday qilib, 1870-1880 yillarda kredit soatlari bilan o’lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o’qish va o’quv dasturlarini o’zlashtirish talabalarga o’quv jarayonini mustaqil rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Jahonning tan olingan ta’lim tizimida bugungi kunda kredit o’lchovi tatbiq etish bo’yicha 4 ta shakli keng joriy qilingan. Bular quyidagilar:

1. AQShning kredit tizimi (USCS)
2. Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS)
3. Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarining kredit tizimi (UCTS)
4. Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS)

#### NATIJALAR

Zamonaviy ta’lim tizimida ham kredit – talabaning alohida ta’lim yo’nalishi yoki dasturi (kurs) bo’yicha fanlarni o’qib o’rganishi va o’zlashtirishi uchun sarflangan o’quv yuklamasining (vaqtning) o’lchov birligidir. Kredit – talabaning ma’lum fan bo’yicha me’yoriy hujjat bilan har bir mavzuga kredit miqdori belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta’lim olish uchun ajratilgan minimal vaqt o’lchovidir. Talabaga kredit ma’lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o’tgandan so’ng beriladi.

Modul – ma’lum kurslar kesimida o’rganiladigan fanlar yoki fan sohasi, o’quv rejada aniq ko’rsatilgan fanning semestrlar kesimida haftasiga ajratilgan vaqt birligida o’zlashtiriladigan qismi.

Modul talabalardan ma’lum bilim va ko’nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada qilish salohiyatiga ega bo’lishga qaratilgan bir nechta fanlar(kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o’qituvchi o’quv jarayonini tashkil qiladi, semestr boshida talabalarni fan bo’yicha sillabus bilan tanishtiradi. HEMIS axborot platformasini fan bo’yicha manbalar (ma’ruzalar matni, amaliy yoki seminar darslar bo’yicha topshiriqlar, mustaqil ta’lim mavzulari va topshiriqlari, oraliq va yakuniy nazorat savollari va testlari) bilan ta’minlaydi, texnologik ma’ruzalar o’qiydi, talabani fanni kredit-modul tizimiga muvofiqlashtiradi va bajarilishini nazorat qiladi. Fan o’qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – talabada mustaqil ishlash ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish. Talaba fan bo’yicha mavzularni mustaqil o’rganadi, hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi, pirovard natijada fanni o’zlashtiradi.

Demak, kredit-modul tizimi, bu - ta’limni tashkil etish jarayoni bo’lib, o’qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o’lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

1. Talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish (bunda mustaqil ta’limning 2 xil shakli qo’llaniladi: o’qituvchi nazoratida o’quv binosida va o’qituvchi nazoratisiz o’quv binosidan tashqarida);

2. Talabalar bilimni reyting asosida baholab, kredit miqdoriga aniqlik kiritish.

2020-yildan O’zbekiston ta’lim tizimida Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS)ning talabalariga javob beradigan pedagogik tamoyillari qo’llanilmoqda. Ko’rsatib o’tish joiz, O’zbekiston

## PEDAGOGIKA

Boloniya deklaratsiyasiga a'zo bo'lmagan, buning ko'plab obyektiv va subyektiv sabablari bor. Bu sabablarga javob topish uchun ushbu maqolamizda Boloniya jarayoni xususida to'xtalamiz.

Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS)ni yaratish uchun o'tgan asrning 70-yillarida Yevropadagi barcha OTMLar integratsiyani ta'minlash, oliy ta'limning yagona standartini yaratish, talabalar va o'qituvchilar mobilligini yo'lga qo'yish, diplomlarni tan olish, talabalar bilimi, malaka hamda ko'nikmasiga qo'yiladigan ballarni inifikatsiya qilish bilan bog'liq bir qator muammolarni yechishga qaratilgan sa'yi-harakatlar boshlab yuboriladi. Mazkur harakatlar samarasi o'laroq, 1999-yilda Italiyaning Boloniya shahrida 29 ta mamlakat vakillari tomonidan "Boloniya deklaratsiyasi" imzolanadi.

Umum yevropa ta'lim tizimini yaratish tashabbusi 1998-yilda Germaniya, Italiya, Fransiya va Buyuk Britaniya ta'lim vazirlari tomonidan ilgari surilgan. Tegishli deklaratsiya (rasmiy nomi – "Yevropa oliy ta'lim hududi") 1999-yil 19-iyun kuni Boloniya (Italiya) shahrida bo'lib o'tgan konferensiyada Yevropaning 29 ta davlati (shundan 16 tasi Yevropa Ittifoqi a'zolari bo'lgan) tomonidan imzolangan. Bu shahar Yevropadagi eng qadimgi 1088-yilda tashkil etilgan "Alma-mater" nomini olgan Boloniya universiteti joylashganligi sababli tanlangan.

2022-yil boshida 49 ta davlat Boloniya jarayonining rasman ishtirokchisi bo'ldi, jumladan, Rossiya, shuningdek, sobiq ittifoqqa mansub davlatlar – Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Moldova, Ukraina va boshqalar Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS)ga a'zo bo'lishdi. Bundan tashqari, Yevropa Komissiyasi jarayonning ishtirokchisi hisoblanadi. Umumiy boshqaruvni barcha ishtirokchi mamlakatlar vakillarini o'z ichiga olgan nazorat guruhi amalga oshiradi.

Rossiya Boloniya jarayoniga 2003-yil sentabrda qo'shilgan. 2007-yilda Rossiya prezidenti Vladimir Putin Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim tizimiga bakalavriat va magistraturani joriy etish to'g'risidagi qonunni imzoladi. Rossiya ta'lim muassasalari Yevropa tizimiga bosqichma-bosqich qo'shildi, ammo hammasi ham uning standartlariga to'liq o'tmadi. Shunday qilib, ko'pgina Rossiya universitetlari Yevropa namunasidagi diplom ilovalarini bermadilar va kreditlar (kredit birliklari) bilan bir qatorda an'anaviy baholashlardan foydalanishda davom etdilar. Shu bilan birga, Rossiya universitetlarini Boloniya tizimiga kiritish maqsadga muvofiqligi haqida munozaralar davom etdi.

Rossiya yetakchi universitetlarining bir qancha rektorlari Yevropa ta'lim standartlarini joriy etishga qarshi chiqdilar. Jumladan, Moskva davlat universiteti rektori Viktor Sadovnichiyning ta'kidlashicha, Rossiyaga xos bo'lmagan ta'lim tizimlari, shu jumladan Boloniya tizimi mamlakatda ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi. Ayrim ekspertlarning fikricha, Boloniya jarayoni Yevropa integratsiyasini mustahkamlash vositasi sifatida faqat Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun yaratilgan va Rossiya uchun bu samarasiz. Rossiya fan va oliy ta'lim vaziri o'rinbosari Dmitriy Afanasevning so'zlariga ko'ra, "to'rt yillik bakalavr darajasi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq shakllantirish uchun yetarli bo'lmagan". [7]

Jahonning taraqqiy etgan davlatlari ta'lim tizimini rivojlantirish uchun "Boloniya Deklaratsiyasiga" qo'l qo'yishdi, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi ham. Tadqiqotchi V.M.Lobzarov "Rossiyaning Boloniya jarayoniga qo'shilishida muhim ichki mantiqni ochib beradi, ma'lum ma'noda nafaqat axborot muhitining rivojlanish talablarini namoyon etadi, shu bilan birga tarixiy an'anani ham aks ettiradi (XVIII -XIX asr fransuz va nemis pedagogika nazariyasi va amaliyoti ta'sirini qayta baholash mushkul)". Buning o'ziga xos tomoni shundaki, ma'suliyatli ta'limni rivojlantirish sohasida Yevropa o'zga madaniyat ta'siridan har qanday saqlanishga urinish hamisha mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'siridan ko'ra ko'proq salbiy oqibatlarga olib kelgan", - deya ta'kidlaydi.[5]

### MUHOKAMA

Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi 2003-yil 19-sentabrda Yevropa mamlakatlari ta'lim vazirlarining Berlin uchrashuvida Boloniya deklaratsiyasiga qo'l qo'yib Boloniya jarayoniga qo'shiladi. Boloniya Deklaratsiyasining eng muhim talablaridan biri – Rossiya Milliy ta'lim tizimini Deklaratsiya asosiy qoidalari bilan moslashtirish, ya'ni

- Professional oliy ta'lim "uchinchi avlod" Federal davlat ta'lim standartlari (FDTS) bo'yicha talabalarning auditoriyadagi majburiy darslari qisqartirilib, asosiy e'tibor mustaqil ta'limiga qaratiladi. Shunday qilib, ikki bosqichli ta'lim tizimiga o'tish Rossiya OO'Yulari oldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Birinchi muhim vazifa – bo'lajak mutaxassislarda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish edi. Rossiya federal ta'limiga Boloniya Deklaratsiyasining joriy etishi

bilan amalda Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System - ECTS) qo'llanila boshlandi.

Xo'sh, Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System - ECTS) Rossiya federal ta'lim tizimiga nima berdi?

Aynan shu muammoga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Eng muhimi – tadqiqot obyekti Yevropa mamlakatlarining kredit tizimiga asoslangan Rossiya federal ta'lim tizimi edi.

Tadqiqotchilar Ya.I.Ustinovanning "Talabalarning o'z o'quv faoliyatini tashkil qilish va nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishi" mavzuidagi pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi, I.L.Shishkinaning "Kredit-modul tizimi sharoitida pedagogik me'yorlar ditaktik funksiyasini amalga oshirish" mavzuidagi pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi, R.I.Urazgaliyevaning "Ta'limni tashkil etishda kredit-modul tizimi talabalar mustaqil ta'limi faoliyatini shakllantirish ko'nikmalarining omili sifatida" mavzuidagi pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi, Z.D.Sharifovanning "Talabalarni mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtirish" mavzuidagi pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. [11, 9, 8]

Tadqiqotchi M.B.Balikayeva "Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilishning horij shakllari" [1, b. 98] mavzuidagi maqolasida AQSH, Kanada, Germaniya, Fransiya davlatlari ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilish shakllari tadqiq etilgan. Shuningdek, ba'zi xorijiy oliy ta'lim muassalarida mustaqil ta'limni tashkil etish prinsiplari va vazifalari o'rganilgan. Shu bilan birga, maqolada bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi (mobilligi) sifatiga ijobiy ta'sir qiladigan talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilish shakllari tahlil etilgan.

Ommaviy axborot vositalarida, ilmiy nashrlarda kredit-modul ta'lim tizimiga bag'ishlangan chiqish, munosabatlar bildirish faollashdi. Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatgan pedagoglar, mutaxassislar ilmiy asoslangan maqolalari orqali shaxsning takomil topishida, raqobatbardosh, har tomonlama yetuk mutaxassisni tayyorlashda kredit-modul ta'lim tizimi afzalliklarini ochib berishdi. Ayniqsa mustaqil ishlash har qanday sharoitda o'zini oqlashini, uni amalga oshirishning samarali mexanizmi xususida salmoqli maqolalar yuzaga kela boshladi. [1, b. 100]

Xorijiy oliy ta'lim muassalarida talabalar mustaqil ishlash shakllarini tahlil qilgan tadqiqotchi, ularni Rossiya oliy ta'lim muassalarida joriy qilingan talabalar mustaqil ishlash usullari bilan chog'ishtiradi.

Tadqiqotchining fikricha, Rossiya va xorijiy ta'lim muassalarida ta'limga zamonaviy integratsion yondashuvlar va talabalar mustaqil ishini tashkil etishda ba'zi jihatlar bir-biriga o'xshash: Bu ikki ta'lim tizimida ham bu jarayon talabalarni o'qitish va ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishning rejalashtirish, tashkil qilish va boshqarishni dolzarb, kompleks muammosi mavjud. Talabalar mustaqil ta'limini amalga oshirishda ular quyidagi tamoyillarga asoslanishadi: ta'lim olish va tadqiqot uzviyligi (ayniqsa Germaniyada), ta'lim sohasidagi integratsiya, auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim shakllari uzviyligi, oliy o'quv yurtidagi ta'limning davomiyligi va uzluksizligi. [3, b.153] Ushbu tamoyillar asosida mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi tarkibiga kiruvchi, uning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini ijodiy rivojlantirishga qaratilgan, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishga qo'yiladigan, o'sib boruvchi talabalar tizimi bilan asoslanadi.

Maqola muallifi insonning o'z ustida ishlashiga, mustaqil bilim olishiga, mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirib mustahkamlashiga katta e'tibor beradi: Tadqiqotchi G.A.Krasnovaning "Amerikaning eng yaxshi universitetlarining yetuk professorlari ta'lim oluvchining mustaqil ta'lim olishini tashkil etish mutaxassislarini kasbiy tayyorlash tizimida muhim omil bo'ladi, deb hisoblashadi. Buning uchun mustaqil ta'lim olishga jiddiy tadqiqot ishlarini ham tadbiiq etish kerak, talabalarning faol ishtirok etishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish kerak" [4, b.50] degan fikrlarini ma'qullaydi. G'arbiy Yevropa va AQSh da ham mustaqil ta'limga alohida e'tibor berishadi deya ta'kidlaydi.

Ko'rib o'tganimizdek, xorijiy oliy ta'lim muassalarida talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashini rivojlantirish ta'lim maqsadlari va mazmunini tubdan o'zgartirish bilan bog'liq. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim maqsadlarini oliy maktabni tugatgandan so'ng talabaning uzluksiz mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishga yo'naltirish; talabalarda samarali ijodiy fikrlashni shakllantirish; mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini va qo'llaniladigan ma'lumotlarni har

## PEDAGOGIKA

tomonlama qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish; ta'lim mazmunini mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi modeliga yo'naltirish. [1, b.97]

2022-yil fevralda Ukrainada maxsus harbiy operatsiya boshlanishi Rossiya Federatsiyasi va Yevropa davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirdi. Xususan, bu Rossiyaning Boloniya jarayonidagi ishtirokiga ta'sir qilmay qolmadi. Aprel oyida Boloniya guruhi Rossiya Federatsiyasi va Belorussiyaning Boloniya jarayoni tuzilmalarida vakolatini to'xtatib turish to'g'risidagi qarorini e'lon qildi. 2022-yil may oyida Rossiya Federatsiyasi Boloniya jarayonida ishtirok etmasligini rasman bildirdi.

2022-yil may oyidan boshlab Rossiya oliy ta'lim va fan vazirligi "mukammal ta'lim tizimi" bo'yicha ish olib bordi. Bunday tizimlashtirilgan ta'lim tizimi Rossiya oliy ta'lim muassasalarida 2023-2024-o'quv yilidan boshlab joriy etildi. 2023-yil 21-fevralda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin Federal Majlisga yo'llagan murojaatida Boloniya ta'lim tizimidan voz kechib, Rossiyada 4 yildan 6 yilgacha o'qish muddati bilan an'anaviy oliy ta'lim tizimiga qaytishni taklif qildi.

Bugungi kunga kelib, Boloniya jarayonida 46 ta mamlakat ishtirok etadi, Boloniya tizimi bo'yicha oliy malakali kadrlarni tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi: 3 yildan kam bo'lmagan bakalavriat tayyorlash hamda 1-2 yillik magistratura bosqichi. [1, b.99]

Hozirda Belgiyada korporativ ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish bo'yicha mutaxassis, "New Links Global" konsaltingi xamkori, "Buyuk kelajak" kengashi eksperti, Malika Sharipova O'zbekiston oliy ta'lim tizimida Boloniya jarayonining maqsadlarini amalga oshirishga doir fikrlari e'tiborga molikdir: "Ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish yo'lida ustuvor vazifalardan qilib, dunyodagi eng ilg'or mamlakatlar bilan tajriba almashish, global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish, hamda o'qituvchi va talabalar oldida turgan sun'iy to'siqlarni bartaraf etishni belgilasa bo'ladi. Ushbu maqsadlarga erishishning samarali yo'llaridan biri sifatida Boloniya jarayoniga qo'shilish bo'lib ko'rinadi, zero yopiq sharoitlarda ta'limni rivojlantirib bo'lmayligini ko'plab mamlakatlarning tajribasidan bilib olish mumkin. [11]

**XULOSA**

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Boloniya jarayoni - nafaqat Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta'limni uyg'unlashtirish, balki bu jarayonga sifatli ta'limni amalga oshirishni, bitiruvchilarning diplomlari boshqa davlatlarda ham tan olinishini hohlagan, talabalar akademik mobillik asosida ta'lim olishni boshqa

O'quv muassasalarida davom ettirish huquqiga ega bo'lishni hohlagan va samarali ta'lim talabiga javob beradigan barcha mamlakatlar hamkorligidir. Bugungi kunda bu tizimga nafaqat Yevropa davlatlari, shu bilan birga sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan ko'plab mustaqil davlatlar, boshqa mintaqalarda joylashgan mamlakatlar ham a'zo bo'lishgan. Bu ta'lim sohasining klassifikatorlari bir-biriga mos keladigan, kreditlar o'lchovi bir-biriga mos, bir-biriga yaqin va o'xshash darajalar (malakalar) tizimini yaratishini, ta'limning kredit tizimiga o'tishini, ta'limning sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va Yevropadagi ta'lim hamkorligini o'z ichiga oladi.

Boloniya jarayonining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, Yevropa oliy ta'limi sifati va jozibadorligini yanada oshirish, talabalar va o'qituvchilarning harakatchanligini kengaytirish, barcha o'qituvchilarni ilmiy darajalar va boshqa malakalarga ega bo'lishini ta'minlash orqali universitet bitiruvchilarining muvaffaqiyatli bandligini ta'minlash. Mutaxassis tayyorlashni mehnat bozoriga yo'naltirilgan bo'lishini yo'lga qo'yish.

Bizningcha, O'zbekiston ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda bugungi kredit-modul tizimiga o'tish sharoitida talabalar mustaqil ishini tashkillashtirish metodikasini shakllantirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ta'lim mazmunini individuallashtirish, talabalarining kasbiy qiziqish va istaklarini inobatga olgan holda ta'lim traektoriyalarining egiluvchanligini va variativligini ta'minlash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Балакаева М.Б. Формы организации самообразования студентов за рубежом для формирования профессиональной мобильности. // Вестник Кемеровского государственного университета 2015 № 1 (61) Т.4. – с. 97-100.
2. Гордеев М.Н. Самостоятельная работа в истории педагогической мысли // Педагогическое образование в России. – 2014. №10. <https://cyberleninka.ru/article/n/samostoyatel'naya-rabota-v-istorii-pedagogicheskoy-mysli/viewer>
3. Джуринский А. Н. Развитие образования в современном мире. - М.: Владос, 1999. – 153 с. / 200 с.



4. Краснова Г. А. Открытое образование: цивилизационные подходы и перспективы: монография. М.: Изд-во РУДН, 2002. – с.50. /252 с.
5. Лобзаров М. В. Модернизация высшего гуманитарного образования: взаимовлияние традиций и инноваций // Проблемы современного образования. 2010. № 5. С. 13-18. [http://pmedu.ru/res/2010\\_5\\_2.pdf](http://pmedu.ru/res/2010_5_2.pdf).
6. Мусаханова Г.М. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, 6/2020 (№ 00050) - 222-226 б. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
7. Россия Федерациясининг Болония жараёнидаги иштироки таҳлили <https://tass.ru/info/17108043> сайтдан олинди.
8. Устинова Я.И. Формирование умений самоорганизации и самоконтроля учебной деятельности у студентов: Дис. ... канд. пед. наук. - Челябинск, 2000.
9. Шишкина И.Л. Реализация дидактических функций педагогических измерений в условиях кредитно-модульной системы: Дис. ... канд. пед. наук. – Ростов-на-Дону. – 2009. – 24 с.
10. Пардаева З.Ж. Организация самостоятельной работы студентов. – Т.: Фан. 2007.- с. 108.
11. Уразгалиева Р.И. Кредитно-модульная система организации обучения как фактор формирования умений самообразовательной деятельности студента. Дис. ... канд. пед. наук. - Оренбург, 2010.- 24 с.
12. Шарипова М. Ўзбекистонни ақлий ресурсларни экспорт қилувчи мамлакат сифатида кўришни истаётган. <file:///C:/Users/Shavkat%20Khurramov/Downloads/Uzanalytics.com>.